

“QUROL-ASLAHA VA TEXNIKALARGA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH VA BU BORADA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI”

Salimov Xoshimjon Latifjonovich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
o‘quv jarayoni ta‘minlash vzvodi komandiri, mayor.

Kurbonov Maqsudali Murodjon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar
tayyorlash markazi o‘quv jarayoni ta‘minlash vzvodi komandirining
qurol-aslahaga bo‘yicha o‘rinbosari, mayor.

ANNOTATSIYA

Zamonaviy jang - moddiy vositalarning katta sarfini, qurol-aslahaga va texnikani doimiy jangovar shay holda ushlab turishni, shikastlangan qurol-aslahaga va texnikani tezkorlik bilan tiklash va uni safga qaytarishni talab etadi.

Bu jarayonni to‘liq ta‘minlash uchun moddiy-texnik ta‘minot tizimi mavjud bo‘lib, bu tizimning ishlashi barcha darajadagi mansabdor shaxslar: komandirlardan tortib ta‘minot tizimidagi barcha shaxslar yakdil bo‘lib tizimli ravishda ishlarni tashkil etishlari lozim. Demak bu jarayon xech qachon muammolarsiz va kamchiligi tabiiy va o‘zida uyushqoqlikni talab etadi.

Kalit so‘zlar: texnik ta‘minot, texnik xizmat ko‘rsatish, tahlil, yagona tizim.

Texnik ta‘minot – bo‘linmalarni harbiy-texnik jihozlar bilan ta‘minlash, ularni ekspluatatsiya qilish va tiklash, shaxsiy tarkibning texnik va maxsus tayyorgarligini ichiga oluvchi tadbirlar kompleksidir.

Bu tizimli ishning qay darajada muhimligini tushunish uchun tarixga nazar solish kerak bo‘ladi. Ta‘minot tizimi ishini to‘g‘ri tashkillashtirishni o‘tgan urushlarning taxliliga asoslangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Chechnya misolida nima uchun ko‘ryapmiz, boshqa urushlar mavjud lekin ularning tahlili to‘liq chiqib ulgurganicha yo‘q, va biz yaqqol ko‘zga tashlanadigan texnik ta‘minot muammolariga to‘xtalmoqdamiz.

Chechnyada ArTT tahlili

- 18 ta SAU 2S1 MA bazalaridan kelgan, ulardan 14 tasi nosoz bo‘lgan;
- 14 tasida ham transmissiyasi to‘xtab qolgan;
- 2 tasida dvigatel nosoz;

-tenglovchi mexanizmlarda bosim 50 % to'plarda me'yorda pastda;
-barcha BM-21 dvigatellari muzlagan, uchirish pultlari nosoz;
-2 ta minomyotda jangovar holatga keltirish va ko'tarish mexanizmlari stoporlari nosoz.

Nosozliklardan bir qanchasiga izoh berib o'tib ketamiz:

JM 9P140 "Uragan"

-otish paytida mo'ljallovchining boshqaruv pultini uzib tashlagan (pultga himoya kerak)

-tunda oyish paytida tungi yoritish simlari yonib ketgan (himoya kerak);

-ZIL-135LM shassisining ikki karbyuratorli dbigatelining past samaradorligi deb tahlilda keltirilgan, yana bir sabab ko'p hollarda bitta dvigatelda yuradilar.

JM-21 "Grad":

- chiqariluchi katushkada snaryad sonini ko'rsatuvchi ko'rsatgich o'rnatish lozim;

- Yuklangan paket bilan uzoq masofaga marsh qilish qiyin kechgan(mashinani boshqarish qiyin bo'lgan);

2A36 "Giasint":

- yuborish mexanizmi prujinasi ahizlik qilgan(yorilgan);

-400 ta snaryad otilgandan so'ng nakatnikda suyuqlik oqib ketgan, Lekin uning otish zahirasi yoki TXK-2 gacha 450-500 ta otish (O'R MV 2013 yildagi 159-buyrug'i);

- dala shroitida esa TXK-2 ni o'tkazish imkoniyati yo'q, chunki yakka va guruhiy zahira qismlari to'plamida almashtirilishi lozim bo'lishi mumkin bo'lgan yoqa (vorotnik) yo'q;

122mm SG 2S1 "Gvozdika"

-to'pni moljalga burish elektoprivodlari ishlaymaydi;

-TQQ (POU)da bosim ko'rsatilganidan past;

-PG-2 panorama yo'q;

-snaryadni joylovchi(dosilatel) ishlaymaydi;

-aloqa vositalari ishlamagan, predoxranitellar yo'q.

2S3 "Akatsiya":

-vaqti-vaqti bilan elektrjoylovchi(yelektrodosilatel) va elektospusk ishdan chiqqan;

-TXK-2 o'z vaqtida o'tkazilmagani natijasida deyarli 100 % to'plarda tepinishga qarshi qurilmalarda suyuqlik oqib ketish kuzatilgan va h.k.

Mana biz doimiy shay holda deb turgan diviziyaning ahvoli, texnik ta'minot tizimi ancha e'tiborsiz qolganini bildirib turibdi.

Qo‘shimcha yoyilgan ta‘mirlash organlari:

Texnik xizmat ko‘rsatish haqida gapirganda unga bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun texnik ta‘minot tadbirlari haqida to‘xtalishni joiz deb topdim:

qurol-aslahalar va texnikalarni to‘g‘ri jangovar qo‘llash va ishlatish – muammolar juda ko‘p, bular natijasida texnikani muddatidan oldin kapital ta‘mirlashga yoki hisobdan chiqarishga jo‘natmoqdamiz, albatta texnikalarimiz ancha eskirib qolgan, lekin almashtirguncha shay holda ushlab turishga harakat qilishimiz lozim;

shaxsiy tarkibga o‘rgatish – barchaga tegishli bo‘lgan, ham texnik, ham mahsus tayyorgarlikka.

qurol-aslahalar va o‘q-dorilarni to‘g‘ri ekspluatasiya qilish;

texnik ta‘minotni rejalashtirish va boshqarish – rejalashtirish bor lekin bir tiximda ketmayapti, tizim ancha tez o‘zgartirilsa, shuncha uni tashkillashtirish va bajarish, naxorat qilish qiyinlashadi;

ekspluatasiya qilishni rejalashtirish va tashkillashtirish;

ushlab turishni tashkillashtirish;

texnik xizmat ko‘rsatishni tashkillashtirish;

ishlab chiqarish, konstruktiv va ekspluatasion kamchiliklar va nosozliklar haqida ma‘lumot yig‘ish – bu muammoga to‘xtalmoq kerak, chuyeni bugungi kunda texnikaga tashhis qo‘yish, ya‘ni uni defektovka qilish ishlari izdan chiqqan deb bemalol aytishimiz mumkin. Defektovka qilish vedomosti har mavsumda almashtiriladi. Nima uchun almashtirishimiz kerak, bu ma‘lumotlar bizga ekspluatasiya jarayonida kerak bo‘ladi-ku. Biz texnikamizning hayotiy jarayonini kuzatib borishimiz va bundan kelib chiqib barcha ishlarni tashkillashtirishimiz lozim. Formulyar – formulyarga yozilmaydigan ishlar ham mavjud;

ta‘mirlashni rejalashtirish va tashkillashtirish;

evakuasiyani rejalashtirish va tashkillashtirish.

Kompleks texnik xizmat ko‘rsatish tadbirlarining yagona tizimi– muayyan namunaning ekspluatasiyasiga oid ko‘rsatkichlar sarfining miqdori yoki uning kalendar hisobidagi xizmat muddatiga bog‘liq holda, shuningdek, ushbu namunaning ekspluatasiya sharoitlar inobatga olingan tarzda texnik xizmat ko‘rsatishning belgilangan turlari majburiy ravishda amalga oshirilishiga asoslanadi.

Texnik xizmat ko‘rsatish tadbirlarida ishtirok etayotgan ta‘mirlash bo‘linmalarining shaxsiy tarkibi zaruriy tayyorgarlikdan o‘tgan, muayyan ish turiga ixtisoslashgan bo‘lishi darkor bo‘lib, zimmasiga tegishli ishlarning to‘la-to‘kis va sifatli bajarilishiga oid mas‘uliyat yuklanishi lozim.

Texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirdan chiqarish ishlari davrida ta‘mirlash ishlari mutaxassislari va raschyotlar tarkibini xo‘jalik ishlari va boshqa tadbirlarga jalb etish man etiladi. Biz tizimning tadbirlari haqida to‘xtalmoqchi emasmiz. Bu haqda barcha

ma'lumotga ega, lekin bunugi kunda shtat struktura o'zgarishlaridan keyin (birlashmalar naxarda tutilmoqda va ta'mirlash o'linmalarining qisqartirilib yuborilgani nazarda tutilyapti) tizimda ancha o'zgarishlar bo'lgan. Shaxsiy tarkib "yaxshi bo'lyapti" degan fikrda. Lekin bu tizim yaxshi ishlayotganidan emas, balki moddiy ta'minotning yaxshilangani va texnikamizning yangilanayotganidan dalolat deb o'ylayman.

Masalan haydovchilardan ayrim hollarda qiziqib so'rayman: "Sening texnikang nosoz holga kelib qolsa, qachon tuzatasan" degan savolga ko'pchilik aniq javob bera olmaydi. Chunki park-xo'jalik kunlarida parkda ishlar ko'ngildagidek tashkillashtirilmayapti. Bu ishlar texnik va mahsus tayyorgarlik mashg'ulotlari hisobiga amalga oshirilib kelinmoqda deb aytishim mumkin. Bu muammo shunday katta muammo-ki, uning asorati qurol-aslaha va texnikamizda 5-10 yillar mobaynida sezilib qoladi.

Bu katta qiyinchiliklar jarayoniga bugundan, hozirdan zamin yaratib borishimiz, bu muammolarning yechimlarini doimiy ravishda topib borishimiz, ularning bajarilishini nazorat qilib borishimiz lozim.

Bir eslab ko'raylik, TO-1, TO-2 texnik xizmat ko'rsatishlar (rejalashtirilganlaridan tashqari) texnik xizmat ko'rsatish 1 oyda deyarli 52 soatni tashkil qilgan: park kunlari 2 kun x 8=16 soat, har kuni QA va texnikaga xizmat ko'rsatish va ertangi kunga tayyorlash 17.00-18.00 - 5 kun x 4 hafta =20 soat, park-xo'jalik kunlari 4 kun x 4 = 16 soat. Jami: 16+20+16=52 soatni tashkil qilgan. Bugun bu vaqtni ta'minlab bera olyapmiz-mi degan savolni o'rtaga tashlaylik va buning yechimlarini topishda davom etaylik.

Bu muammo, ha buni muammo deb atashga jur'at qilmoqdaman, chunki texnik hujjatlar bilan ishlash, texnikaning hayotiy siklini doimiy ravishda kuzatib borish ishlari oqsab kelmoqda. Bu esa qurol-aslaha va texnikani to'g'ri ekspluatasiya qilish, o'z vaqtida unga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirga chiqarish ishlarini orqaga surmoqda yoki umuman nazardan chetda qolib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Texnika bugun yurib ishlab turibdi, lekin unga tizimli ravishda o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatilmasa, eng karakli va muhim davrda u to'xtab qolishi va bizga pand berishi mumkinligini xech qachon unutmaylik.

XULOSA

Bu chizmadan ko'rinib turibdi-ki barcha tadbirlar bir-biriga bog'liq ularni amalga oshirishda butun shaxsiy tarkibning, barcha pog'onadagi shaxsiy tarkibning uyushqoqlik bilan rejalashtirilgan barcha tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirishi qurol-aslaha va texnikaning xizmat qilish muddatini uzaytirishning asosiy omillarida biri bo'lib xizmat qilishini barchamiz tushunishimiz va doim nazardan chetta qoldirmasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari “Vatanparvar” gazetasini 11-sonli chiqish bosmasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari “O‘zbekiston armiyasi” jurnali, 1 (19) soni.
3. Ijtimoiy tarmoqlardan.